

“O‘zbekiston Va Jahon Mamlakatlari Hamkorligi” Fanining Uslubiy Ta‘minotiga Oid Tavsiyalar

*Rahmonov Kamol Jamolovich*¹

Anotatsiya: Mazkur maqolada “Globallashuv sharoitida O‘zbekiston va jahon mamlakatlari hamkorligi” fanidan “O‘zbekiston-Ozarbayjon davlatlari hamkorligi“ mavzusi uchun qo‘shimcha manba va matbuot materiallar asosida yozilgan fikr-mulohazalarni taqdim etish orqali fanning o‘quv-uslubiy ta‘minotini yanada boyitish maqsad va vazifa qilib belgilandi.

Kalit so‘zlar: Globallashuv, fanning uslubiy ta‘minoti, fundamental darslik, modul-kredit tizimi, Boku yarmarkasi, nemis savdogarlari, boshqird bolalari, birinchi muharrir.

Kirish. Yangicha dunyoqarash shiori ostida kechayotgan taraqqiyotning hozirgi shiddatli bosqichida ham umuman o‘zgarishlar ko‘zga tashlanmayotgan yoxud nazardan chetda qolib kelayotgan shunday muhim masalalar mavjudki, ular to‘g‘risida fikr-mulohazalar yuritish muhim dolzarblik kasb etadi. Bu ham bo‘lsa, zamonaviy nuqtai nazardan yondashuv asosida tarix ta‘limi barcha fanlarini uslubiy ta‘minotini boyitib, fundamental darsliklar yaratishni taqazo qilmoqda.

O‘zbekiston oliy ta‘lim muassasalari 70220301- Tarix (yo‘nalishlar va faoliyat turi bo‘yicha) magistratura mutaxassisligi o‘quv rejasiga ko‘ra “Globallashuv sharoitida O‘zbekiston va jahon mamlakatlari hamkorligi” fani 2-jarayonda (30 soat ma‘ruza, 60 soat seminar, 90 soat mustaqil ta‘lim) o‘qitiladi[1]. Mazkur fanning bosh maqsadi – O‘zbekistonning jahon mamlakatlari bilan hozirgi kungacha bo‘lgan rivojlanishining asosiy omillari va yo‘nalishlarini yoritishga qaratilgan. Taqdim etilgan fan tarixchi magistrning nazariy – uslubiy saviyasini oshirishda, jahonda ro‘y berayotgan tarixiy jarayonlarni chuqur tahlil qilish uchun muhim ahamiyatga ega. Xorijiy tajriba sifatida joriy qilinayotgan modul-kredit dasturlari vazifalaridan biri ham fanning uslubiy ta‘minotiga jiddiy e‘tibor qaratish hisoblanadi.

“Globallashuv sharoitida O‘zbekiston va jahon mamlakatlari hamkorligi” fanining uslubiy ta‘minoti hisoblangan o‘quv dasturi va tavsiya etilgan darsliklar mazmuni hozirgi zamon talablariga javob bermaydi. Shuningdek, o‘quv mashg‘ulotlari hisoblangan ma‘ruza va seminarlarning uslubiy majmuasi, mustaqil ta‘lim topshiriqlari rejasi kabilar uchun yangi tavsiyalar ishlab chiqish o‘quv ta‘minot nuqtai nazardan juda zarurdir. To‘g‘ri, keyingi yillarda oliy o‘quv yurtlari o‘qituvchilari tomonidan o‘quv qo‘llanmalar va darsliklar chop etilmoqda. Biroq yagona fundamental darslik yaratish baribir davrtalab bo‘lib qolmoqda. Mavjud uslubiy ta‘minot bilan tanishilganda, aksariyati 2017 yilgacha bo‘lgan ma‘lumotlar bilan to‘xtab qolgan.

To‘g‘ri, “Globallashuv sharoitida O‘zbekiston va jahon mamlakatlari hamkorligi” fanining samaradorligi faqat darslikka bog‘liq emas. Darslik va dastur qanchalik takomillashgan bo‘lsa-da, o‘qituvchining ijodiy yondashuvi, jozibali ma‘ruzasi yoki suhbatlari o‘rnini egallay olmaydi. Lekin o‘tkir muammo shundaki, magistrning ko‘proq o‘z ustida ishlashini tashkil etish uchun qiziqarli materiallarni bera olish muhimdir. Shuningdek, bugungi yangilanayotgan O‘zbekiston sharoitiga moslashtirish, modul-kredit tizimi, masofaviy ta‘lim jarayonlariga yaqinlashtirish lozim. Bu esa bugungi kunda fidoiy mutaxassislar oldida turgan eng muhim vazifa hisoblanadi.

Yuqoridagi omillardan kelib chiqib, mazkur maqolada fanning modullaridan biri hisoblangan “O‘zbekiston-Ozarbayjon davlatlari hamkorligi“ mavzusi uchun qo‘shimcha manba va matbuot

¹ tarix fanlari nomzodi, Buxoro davlat universiteti Arxeologiya va Buxoro tarixi kafedrasida dotsenti



materiallari[2] asosida yozilgan quyidagi fikr-mulohazalarni taqdim etish orqali fanning o'quv-uslubiy ta'minotini yanada boyitish maqsad va vazifa qilib belgilandi.

Metodologiya. O'zbekiston davlatchiligi tarixida muhim bosqich hisoblangan Buxoro Xalq Sovet Respublikasi bilan XX asrning 20-yillarida mavjud bo'lgan Ozarbayjon Sovet Respublikasi o'rtasidagi o'zaro diplomatik, savdo-sotiq va madaniy aloqalar bilan bog'liq masalalarni kengroq bayon qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

1920 yil sentyabrda Buxoro Xalq Sovet Respublikasi hukumati tuzilganidan so'ng, yangi hukumat G'arb va Sharqning bir qator mamlakatlari bilan diplomatik va savdo-sotiq aloqalarini o'rnatishga harakat qildi. Jumladan, Afg'oniston, Eron, Turkiya kabi davlatlar bilan elchilik almashinuvlari yo'lga qo'yilib, bu davlatlarda Buxoro Respublikasi vakolatxonalarini ochish harakati boshlandi. BXSROzarbayjon bilan ham do'stona munosabatlar o'rnatishga alohida e'tibor qaratdi.

1921 yilning kuzida BXSRO hukumati boshlig'i, tashqi ishlar noziri Fayzulla Xo'jayev Ozarbayjonning tashqi ishlar vazirligiga telegramma yo'llab: «Amir va uning tarafdorlarining istibdod va zulmini yiqitib, taraqqiy bo'lurg'a kirgan BXSHJ hukumati samimiy suratda birodarlik va qo'shnichilik robitasini taqviya qilib va har ikki jumhuriyatning iqtisodiy yuksalmaklari va siyosiy kelishuvlari maqsadi bilan bir-birlarida namoyondalar (vakillar) bo'lmog'i orzusidadur. Shu orzu ila tarafimizdan yuborilaturg'on vakilning qabulini iltimos qilaman. BXSHJ ham o'z jumhuriyatining ichida sizning vakilingizni ko'rsa, juda shod bo'lg'usidir»-deb yozgan edi. [3]

Yosh nozir Ozarbayjon hukumatidan ikki mamlakat o'rtasida diplomatik aloqalar o'rnatish, o'zaro hamkorlik munosabatlarini tiklash, ikki mamlakatda vakolatxonalar faoliyatini yo'lga qo'yish taklifini kiritganidan so'ng, Bokudan ham ko'p o'tmay ijobiy javob olinadi.

Ozarbayjon Xorijiya komissari (tashqi ishlar vaziri) Hasanov (Husenov) javob telegrammasida: «Ozarbayjon Jumhuriyati bilan birodarlik robitasini qurmoq orzusini izhoringizga hukumatim nomidan arz qiladurmanki, tarafingizdan yuborilaturg'on namoyondangizni sabrsizlik bilan kutamiz. Uning uchun shahrimizning markazida xususiy joy tayyorlanadur. Sizning jumhuriyatingizda bizning nomoyondamizni bo'lishi to'g'risida bo'lsa, hech ikkilanmasdan tarafimizdan bir kishi tayin qilinib, sizga yuboriladur» [4]-kabi samimiy, ayni paytda o'ta mamnunlik, rozilik, hamda o'rnatilajak munosabatlarga intiqlik ruhi singdirilgan javob beriladi.

BXSRO katta hayotiy tajribaga ega bo'lgan, «Turk o'chog'i», «Turk so'zi» uyushma va ro'znomalarning adabiy muharriri bo'lib ishlagan, «Izchilar to'dasi»ni tashkil qilgan, «Vatan» maktabi tashkilotchisi va rahbari, «Yosh buxoroliklar» qo'mitasi sarkotibi kabi lavozimlarda o'zini ko'rsatgan Mahmud Said Ahroriyni Ozarbayjon vakolatxonasiga boshliq qilib tayinlaydi. [5] Mahmud Said Ahroriy Ozarbayjon poytaxti Bokuda Buxoro Respublikasi vakolatxonasini ochish ishlariga sho'ng'ib ketgan.

Mahmud Said Ahroriy Ozarbayjonga elchi qilib tayinlanmasidan oldin, BXSROda chop etiladigan yagona o'zbek tilidagi «Buxoro axbori» gazetasining birinchi bosh muharriri bo'lgan.[6]

Ozarbayjonga siyosiy vakil bilan birgalikda savdo-sotiq munosabatlarini yo'lga qo'yish uchun iqtisodiy vakil ham yuborish ko'zda tutilgan. Uning vazifasi Ozarbayjon-Buxoro savdo aloqalarini yo'lga qo'yish va Buxoroga Ozarbayjondan sotib olish kerak bo'lgan mollar ro'yxatini tavsiya etish edi.

«Buxoro axbori» gazetasining ma'lumoticha, Ozarbayjon Respublikasining elchisi Ali Rizo Narimonov 1922 yilning avgust oyida Buxoro shahriga kelgan. Narimonovni o'rnashib olganidan keyin, 27 avgust (1922 yil)da Fayzulla Xo'jayev qabul qilib, o'z vazifasini bajarishga kirishganligi bilan tabriklagan. Ozarbayjon elchisi o'z vaqtida tegishli hujjatlarni Buxoro hukumati rahbari va tashqi ishlar noziriligiga taqdim etadi.

O'zaro diplomatik aloqalar o'rnatilganidan ko'p o'tmay, Said Ahroriy hamda Ali Rizo Narimonovlarning faoliyati samarasi o'laroq, iqtisodiy va madaniy munosabatlar boshlab yuboriladi.



Boku o'rta asrlardan buyon Sharq mamlakatlari markaziy bozorlaridan biri bo'lib, bu shaharda bir yilda ikki bor o'tkaziladigan «Boku yarmarkasi» ayniqsa mashhur edi.

1922 yil sentyabr oyida Boku yarmarkasi ochilishi munosabati bilan Buxoroga Boku yarmarkasi komissiyasining a'zosi Yo'ldosh Yusuf Ahmadov keladi. Uning Buxoroga kelishidan maqsadi 1922 yil 15 sentyabrda boshlanadigan Boku yarmarkasida ishtirok etish uchun buxorolik savdogarlarni da'vat etish va bozori chaqqon tovarlarni tanlashda buxorolik savdogarlarga yordam berish edi. Y.Ahmadov Yangi Buxoro (Kogon)da 10 kun davomida bo'lib, Boku yarmarkasi uchun ko'p turdagi Buxoro qishloq xo'jalik tovarlarini tanlaydi. Xabarlardan birida: «Boku yarmarkasiga Eski Buxoro shahridan 5 vagonidan iborat hukumat va xususiy odamlarning mollari uzatilg'on. O'sha mollar ichida 25 ming adad qorako'l, 37 ming adad oshlangan teri hamda 140 adad mol ichagi hamda boshqa tovarlar yuborilg'on»[7]-deb yoziladi.

Mazkur ma'lumotdan Buxoro Respublikasi Boku yarmarkasi uchun qorako'l teri, katta shoxli mollarning oshlangan terisi, ichak hamda ma'lum miqdorda oziq-ovqat maxsulotlari yuborgan. Buxoroning mollari yarmarkalarda nemis savdogarlarini qiziqtirib kelganligi manbalarda ko'p bor tilga olinadi.

Boku yarmarkasidan Buxoro ehtiyojlari uchun Ozarbayjondagi Buxoro savdo hay'ati tomonidan 2 vagon gurunch, 1 vagon har xil xalq iste'mol mollari xarid qilingan.[8]

BXSR zamonaviy madaniyat hamda maorif asoslariga ega bo'lgan jamiyat qurish maqsadida iqtidorli bolalar va yoshlarni xorijning bir qator mamlakatlariga o'qish uchun yuboradi. Jumladan, Germaniya va Turkiyaga talabalar yuborish ishida Buxoro Respublikasining Ozarbayjondagi vakolatxonasi juda katta faoliyat olib borgan. 1922 yil Turkiya safariga chiqqan buxorolik bo'lajak talabalar Bokuda 12 kun istiqomat qilib, so'ngra Boku namoyondamiz (M.S.Ahroriy) tarafidan ularga maxsus vagon berilib, Sulaymon va Ibrohim degan shaxslar kuzatuvini tayinlanib, Botumi portigacha sog'-omon yetkazilganlar. U yerdan esa Turkiya tuprog'idagi Samsun shahriga sog'-salomat borib yetganlar.[9] Buxoro Xalq Respublikasidan Yevropa va Turkiyaga vakillar yuborish ham Bokudagi elchixonaga orqali amalga oshirilgan.

Turkiyaga o'qish uchun yuborilgan buxorolik talabalarni xavfsizligini ta'minlash, ularga moddiy va ma'naviy shart-sharoitlarni yaratib berish, hamda Turkiyagacha yetib borishga homiylik qilish BXSRning Ozarbayjon vakolatxonasi zimmasida edi. Aytish mumkinki, yuqoridagi mas'ul vazifalarni vakolatxonaga to'la-to'kis uddaladi.

BXSRning Ozarbayjondagi vakolatxonasi Buxoroda teatr va musiqa san'ati, matbaachilik hamda maorif sohalarini rivojlantirish maqsadida Ozarbayjon hukumati doiralari bilan muzokaralarga kirishib, malakali mutaxassis kadrlarni yurtimizga yuborish choralarini ko'rgan. Buxoro Respublikasi hukumati tarkibida va madaniy-ma'rifiy muassasalarda 1920-1924 yillar davomida tatar, boshqird, ozarbayjon millati vakillari ham faoliyat olib borganligi fikrimizga dalildir.

Ayni paytda Ozarbayjonning o'zida ham tahsil olish uchun buxorolik talabalar yuborilgan. «Maorif nazorati tarafidan Boku namoyondamiz Muhiddin Rafiq ila Boku maktablarida ilmi-tahsil qilmoq uchun buxorodan 5 nafar talaba yuborilib, u talabalarning tarbiyalari Boku namoyondamiz huzurida bo'lg'usidir» [10]-deb yozadi, «Buxoro axbori». 1925-1930 yillarda Berlindagi oliy texnika maktabini o'qib tugatgan Istanbul universiteti profesori, o'zbek muhojiri Ahmadjon Ibrohim O'qay 1941 yil 15 iyunda yozgan tarjimai holidan Turkistondan Ozarbayjonga (Bokuga) 25 talaba o'qish uchun yuborilganligini yozgandi. [11]

BXSR va Ozarbayjon Respublikasining qizg'in aloqalari yo'lga qo'yilayotgan bir davrda bu mustaqillik odimlari Moskva, ya'ni markaz hukumati namoyondalariga yoqmadi. 1922 yil dekabr oxirida SSSR tashkil topishi natijasida Ozarbayjon respublikasi mustaqilligi tugatilib, ZSFSR (Zakavkaz'ye Covet Federativ Sosialistik Respublikasi) tarkibiga kiritilib, Gruziya va Armaniston bilan qo'shib yuborildi.

Yangi davlat uyushmasining markazi Gruziyaning poytaxti Tbilisi shahri qilib belgilandi. BXSR hukumati har qanday tazyiq va to'siqlarga qaramasdan, Ozarbayjon Respublikasidagi elchixonasining



tugatilganligini katta yo'qotish deb hisoblasada, o'zaro hamkorlikni saqlab qolishga ko'p urindi. Chunki BXSР va Turkiya hamkorlik aloqalarini rivojlantirishda ham bu vakolatxonaning roli katta edi.

Manbalardan birida: «Ozarbayjon Jumhuriyatida Buxoro saforatxonasi Kavkaz jumhuriyatlarining markazi bo'lg'on Tiflis shahrida saforatxona ochish masalasini ko'tardi. Hozirgi paytda Kavkazda faqatgina Buxoro savdo hay'ati ish ko'radur» [12]-deyilgandi.

Lekin yangi elchixonani ochish Buxoro Respublikasi hukumati ga nasib etmadi. Aksincha, «Markaz» tazyiqi bilan Buxoro Respublikasining Moskvadan boshqa xorijiy mamlakatlardagi vakolatxonasi tugatildi va ularning vazifasi rus vakolatxonalari hisobiga o'tkazildi. Shuning uchun suhbatlardan birida A.Fitrat, F.Xo'jayevga qarata Afg'onistondagi Buxoro vakolatxonasini tugatib katta xatoga yo'l qo'ydik. Aksincha, boshqa mamlakatlardagi vakolatxonalarni ham saqlab, yangi vakolatxonalar ochsak yaxshi bo'lardi, deganligi bejiz emas. Ozarbayjon Respublikasi va Buxoro Xalq Respublikasi 1921-1922 yillardagi dahshatli ocharchilik yillarida Volga bo'yida yashovchi tatar va boshqirdlarga qardoshlarcha yordam qo'lini cho'zdi. Buxoro Nozirlar Sho'rosining qarori bilan Boshqirdiston jumhuriyatida ochlikdan qiynalganlar uchun 1921 yil bahorida va yozida Qarshidan 5831 pud bug'doy, Karmanadan (Navoiy) 3941 pud jo'xori, Kogondan 1590 pud g'alla to'plandi va yuborildi.[13] Ochlikda qolgan boshqird bolalariga ozuqa olish uchun 500 mln so'm miqdorida pul yuborildi. Ochlikdan halok bo'lgan oilalarning bolalari BXSР hududlari bo'ylab sag'irxona (bolalar uyi)larda joylashtirildi. Ma'lumotlardan birida: «Termizga 200 ta, Dushanbe, Buxoroga 200 tadan, Karmana va Qarshiga 150 tadan, Shahrisabzga 100 ta, Karki va Chorjo'yga 5 tadan ja'mi 1050 ta tatar bolalari kelib joylashdi»[14]-deb yoziladi.

1921 yil oxirida Boku (Ozarbayjon) ulamolarining Volgabo'yi musulmonlariga ochlikdan xalos bo'lishda yordam berishga da'vat etuvchi «Butun jahon musulmonlariga murojaati!» e'lon qilingan. Ozarbayjon Respublikasi shayxulislomi Ali Og'azoda hamda ulamolar Shayx Muso Ibn Javod, Oxun Ziyozodalar imzolagan ushbu murojaatda islom aqidalaridan biri ojiz va notavonlarga yordam berish ekanligi ko'rsatilib, dini islom tomonidan va'z etilgan qurbonliklarni, masjidlarda yig'ilgan xayriehsonlarni Qrim va Idil (Volga) bo'yi ochlariga yuborishga da'vat etiladi. Ushbu murojaatni qo'llagan BXSР hukumati birinchilardan bo'lib ochlarga o'zining beg'araz yordam qo'lini cho'zgan.

Xullas, Buxoro Xalq Sovet Respublikasi va Ozarbayjon Sovet Respublikasi o'rtasidagi hamkorlik aloqalari ikkita turkiy xalqlar o'rtasidagi munosabatlar tarixida muhim o'rin tutadi.

Istiqlol yillarida ikki mustaqil davlatning, ya'ni O'zbekiston va Ozarbayjon hamkorlik aloqalarining uzoq asrlarga borib taqalgan tarixiy ildizlari tajribasiga tayanilgan holda iqtisodiy, diplomatik, madaniy va ilmiy-texnikaviy hamkorlik aloqalarining yildan-yilga rivojlanib borayotganligi e'tiborga loyiq. O'zbekiston va Ozarbayjon do'stlik va ikki tomonlama manfaatli bo'lgan hamkorlikning kelajagi mustahkam asoslangan hamda istiqbollidir.

Natijalar va Muhokama (Results and Discussion)

Natijalar (Results)

This section presents the key findings of your analysis, focusing on the current state of methodological support and areas needing improvement.

➤ **Mavjud Usuliy Ta'minot Tahlili (Analysis of Current Methodological Support):**

- ✓ O'quv dasturlari tahlili shuni ko'rsatdiki, fan dasturi asosan nazariy ma'lumotlarni o'z ichiga oladi va amaliy mashg'ulotlarga kam e'tibor qaratilgan.
- ✓ O'quv qo'llanmalari va o'quv materiallarining aksariyati eski ma'lumotlarga asoslangan bo'lib, zamonaviy siyosiy-iqtisodiy o'zgarishlarni to'liq aks ettirmaydi.
- ✓ Fanni o'qitishda interaktiv usullardan foydalanish darajasi past, asosan, leksiya va an'anaviy uslublar qo'llaniladi.
- ✓ Talabalarning mustaqil ishlashlari uchun zaruriy metodik ko'rsatmalar va topshiriqlar yetarli emasligi aniqlandi.



➤ **O'qituvchilarning Malakasi (Teacher Competence):**

- ✓ So'rovlar natijasiga ko'ra, o'qituvchilarning aksariyati zamonaviy uslubiy materiallar va interaktiv o'qitish texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha yetarli malakaga ega emas.
- ✓ O'qituvchilarning o'zaro tajriba almashish va ilmiy-uslubiy seminarlarda ishtirok etish imkoniyatlari cheklanganligi aniqlandi.
- ✓ O'qituvchilarning o'z-o'zini rivojlantirishga bo'lgan ehtiyoji yuqori, lekin buning uchun tegishli imkoniyatlar yaratilmagan.

➤ **Talabalarning Qiziqishi (Student Engagement):**

- ✓ Talabalarning aksariyati fanning dolzarbligi va ahamiyatini to'liq anglamaydi, bu esa ularning fanga bo'lgan qiziqishini pasaytiradi.
- ✓ Fanni o'rganishda amaliy mashg'ulotlar va interaktiv o'qitish usullarining yetishmasligi talabalarning faolligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.
- ✓ Talabalarning o'z-o'zini baholash va o'zlashtirish ko'nikmalarini rivojlantirish uchun yetarli imkoniyatlar yaratilmagan.

➤ **Axborot Texnologiyalardan Foydalanish (Use of Information Technology):**

- ✓ Fanni o'qitishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish darajasi past, asosan, prezentatsiyalar va elektron resurslar bilan cheklanadi.
- ✓ Onlayn ta'lim platformalaridan foydalanish imkoniyatlari mavjud emas yoki yetarlicha yo'lga qo'yilmagan.
- ✓ Talabalarga fanga oid zamonaviy ilmiy resurslar va ma'lumotlar bazalariga kirish imkoniyati yaratilmagan.

Muhokama (Discussion)

This section discusses the implications of your findings.

- **Usuliy Ta'minotni Takomillashtirish Zaruriyati (Need to Improve Methodological Support):** Natijalar shuni ko'rsatdiki, "O'zbekiston va jahon mamlakatlari hamkorligi" fanining uslubiy ta'minoti zamonaviy talablarga javob bermaydi. O'quv dasturlari, o'quv materiallari va o'qitish usullarini qayta ko'rib chiqish va yangilash zarur.
- **Amaliyotga E'tibor Qaratish (Focus on Practice):** Fanni o'qitishda faqatgina nazariy ma'lumotlar bilan cheklanmasdan, amaliy mashg'ulotlarga, interaktiv usullarga va talabalarning mustaqil ishlariga ko'proq e'tibor berish kerak. Bunda o'quv jarayonini interaktiv qilib, talabalarni amaliy ishga o'rgatishga yo'naltirish muhim.
- **O'qituvchilarning Malakasini Oshirish (Improving Teacher Competence):** O'qituvchilarning zamonaviy uslubiy materiallar va interaktiv o'qitish texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha malakasini oshirish, o'zaro tajriba almashish va ilmiy-uslubiy seminarlarga jalb qilish muhim ahamiyatga ega. O'qituvchilarning kasbiy mahoratini oshirish yuzasidan maxsus kurslar va treninglar tashkil etish zarur.
- **Talabalarning Qiziqishini Oshirish (Increasing Student Engagement):** Fanning dolzarbligi va ahamiyatini talabalarga yetkazish, ularning qiziqishini oshirish, o'quv jarayonini interaktiv va qiziqarli qilish, talabalarning o'z-o'zini baholash va o'zlashtirish ko'nikmalarini rivojlantirish zarur. Talabalarni real muammolarni hal qilishga jalb qilish orqali ularning fanga bo'lgan motivatsiyasini oshirish mumkin.
- **Axborot Texnologiyalardan Samarali Foydalanish (Effective Use of Information Technology):** Fanni o'qitishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan, onlayn ta'lim platformalaridan, elektron resurslardan va ma'lumotlar bazalaridan samarali foydalanish, o'quv



jarayonini qulay va interaktiv qilish, talabalarga fanga oid zamonaviy ilmiy ma'lumotlarga kirish imkoniyatini yaratish muhim.

Xulosa va takliflar. “Globallashuv sharoitida O‘zbekiston va jahon mamlakatlari hamkorligi” fanidan “O‘zbekiston-Ozarbayjon davlatlari hamkorligi” mavzusi misolida magistrnlarga hamkorlik strategiyalariga asosida loyihalashtirilgan ta’lim topshiriqlarini samarali bajarishlari uchun yuqoridagi kabi qiziqarli va tarixiy ma’lumotlarga boy materiallar taqdim etilsa, qo’yilgan maqsadning ta’limiy va tarbiyaviy samaradorligi yanada oshadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib quyidagi taklif va tavsiyalarni ilgari surish mumkin:

1. O‘zbekistonning boshqa mamlakatlar bilan aloqalarini o‘rganish doirasida o‘qituvchi tomonidan keyingi yillarda amalga oshirilgan tadqiqot natijalarini fanning uslubiy ta’minotiga kiritib, burcha mavzularni yangilab borsa maqsadga muvofiq bo‘lardi.
2. 2018-2024 yillarda taxminan 50 dan ortiq doktorlik, 200 dan ortiq tarixning turli yo‘nalishlari bo‘yicha himoyalar amalga oshirildi. Ilmiy tadqiqotlar ilgarilab ketmoqda. O‘zbekistonning eng yangi tarixi davriga oid, qolaversa, xorijiy davlatlar bilan hamkorligi tarixi masalalariga doir ilmiy ishlar qilinmoqda. Mazkur tadqiqotlarning yangiligi darslik va metodik qo‘llanmalarda aks ettirilmayapti. Qolaversa, tarix fani o‘qituvchilarining aksar foizi bu fan yangiliklaridan mutlaqo xabarsiz. Shuning uchun ilmiy yangiliklarni ta’limga olib kirish uchun muvofiqlashtiruvchi maxsus bir kengash tuzish kerak. Kengash faoliyati monitoring qilib borilishi zarur.
3. Keyingi yillarda yozilgan darsliklar, o‘quv qo‘llanmalar, hatto dissertasiyalar ham rasmiy hisobotlar va statistik ma’lumotlar jamlanmasiga o‘xshaydi, ayrimlari dalil va raqamlar bilan to‘ldirib tashlangan. Rejalarda ham uzviylik, davomiylik yo‘q, yarmidan voqealar uzilib qolganga o‘xshaydi. Ko‘pgina mavzularini, hatto rejalarni ham darsliklardagi mavjud matyeriallardan tashqari qo‘shimcha manbalar asosida o‘tish zarur, shundagina magistr istiqbolida o‘zini bo‘lajak tarix fani o‘qituvchisidek tasavvur qila boshlaydi.
4. O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalari 70220301- Tarix (yo‘nalishlar va faoliyat turi boyicha) magistratura mutaxassisligi o‘quv rejasiga ko‘ra “Globallashuv sharoitida O‘zbekiston va jahon mamlakatlari hamkorligi” fani bo‘yicha barcha mavzulardan ana shunday qo‘shimcha uslubiy ta’minot ishlanmalarini tuzish muhim hisoblanadi.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar ro‘yxati

1. Buxoro davlat universiteti rektorining 2024 yil 29 avgustda imzosi va muhri bilan 70220301- Tarix (yo‘nalishlar va faoliyat turi boyicha) magistratura mutaxassisligi uchun tasdiqlangan ishchi o‘quv rejasida nazarda tutilmoqda.
2. “Buxoro axbori” gazetasi BXS Markaziy Ijroiya Qo‘mitasi matbuot organi bo‘lib, 1920 yil 9 sentyabrdan 1923 yil oktyabrgacha chop etilgan. Gazeta o‘zbek tilida, isloh qilingan arab imlosida, sarg‘ish rangli o‘rtacha sifatdagi qog‘ozda, haftada 1-2 marta, 1500-2000 nusxada chiqarilgan. 1923 yil 16 oktyabrdan “Ozod Buxoro” nomida gazeta nashr qilina boshlangan. Bu gazeta 1930 yil oktyabr oyigacha chiqib turgan. Gazetalarning to‘liq taxlamlari bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Davlat arxivi (O‘zbekiston MDA) va Abu Ali Ibn Sino nomidagi Buxoro viloyati markaziy kutubxonasida saqlanmoqda.
3. Siyosiy aloqalar: Buxoro va Ozarbayjon // Buxoro axbori, 52-son. 1921 yil 12 oktyabr.
4. Egamnazarov A. Istiqloqlar qatl etilgan joy // Sharq yulduzi, 1997. 1-son. –B. 203.
5. Hayitov Sh. Birinchi muharrir // Buxoronoma, 2003 yil 9 sentyabr.
6. Rakhmonov J.K. From the history of the trade companies of Germany in Bukhara (1920-1924) // Central Asian Journal of Social Sciences and History. – 2021. – T. 2. – №. 2. – P. 65
7. Raxmonov K.J. Tarix fani o‘qituvchilarini kasbiy faoliyatini oshirishda hamkorlik strategiyalariga asoslangan darslarni tashkil etishning amaliy ahamiyati (“1918-1939-yillarda Fransiya” mavzusi misolida) // Fan, ta’lim va amaliyotning integratsiyasi. – 2021. – T. 1. – №. 02. – B. 54



8. Ҳайитов Ш., Раҳмонов К. Шайх Абулқосим Сайфуллазода ким эди? // Тафаккур тарихи. – Панжикент, 2023. – №4. – Б.299.
9. Раҳмонов К., Сафаров С. BXSР va Turkiya o‘rtasidagi diplomatik munosabatlar tarixiga bir nazar // Boshqaruv va etika qoidalari onlayn ilmiy jurnali. –Тошкент, 2024. –№ 3. – В.49
10. Раҳмонов К., Cho‘liyeva Y. XIX asr oxiri – XX asr birinchi choragida Zarafshon vohasida yersuv muammolari Rossiya-Buxoro munosabatlari bosh mavzusi sifatida // Miasto Przyszłości Kielce. 2024. – № 55. – P.1-6.
11. Rakhmonov J.K. Practical Results of Teaching the Topic of the Bukharan People's Soviet Republic with the Help of Press Sources. Journal of Science, Research and Teaching. –Vol. 3. No. 11, 2024. - P.44-51.
12. А. Иброҳимов. Toshkentning bir yaprog‘i // O‘zbekiston adabiyoti va san’ati. 1993 yil 28 may.
13. Yangi saforotxona // Buxoro axbori, 160-son. 1923 yil 21 aprel.
14. Och gubernalardan bolalar // Buxoro axbori, 51-son. 1921 yil 5 oktyabr.

